



O'QUVCH YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISH SAMARADORLIDA O'QITUVCHI MAHORATI

Mohira Xasanovna Toshbekova

*Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi, dars va o'quv mashg'ulotlari unda ta'lim oluvchilarning samarali harakatlari, faol ishtiroki, darsning texnologik xaritalar asosida tizimli borish jarayoni muhokama qilinadi. O'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish samaradorlida o'qituvchining pedagogik mahorati, psixologik tayyorgarligi hamda va kommunikativ qobiliyati xususida fikr rivojlantirilgan. O'quvchilarning ijtimoiy muhitda va auditoriyadagi kommunikabellik sifatlarining ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya tizimi, dars, o'quv mashg'ulotlari, yoshlarni kasbga yo'naltirish, kommunikabellik, pedagogik mahorati, o'quvchilarning ijtimoiy muhiti*


Аннотация: *В данной статье рассматривается современная система образования, уроки и воспитательная деятельность в демократическом правовом государстве и гражданском обществе, эффективные действия, активное участие обучающихся, системный процесс урока на основе технологических карт. Эффективность педагога в направлении учащейся молодежи в профессию развиты педагогические навыки, психологическая подготовка, коммуникативные навыки. Анализируется значимость коммуникативных качеств студентов в социальной среде и в аудитории.*

Ключевые слова: *система образования, урок, обучение, профориентация молодежи, коммуникативность, педагогическое мастерство, социальное окружение учащихся.*

Abstract: *This article discusses the modern educational system, lessons and educational activities in a democratic legal state and civil society, the effective actions, active participation of learners, the systematic process of the lesson based on technological maps. The effectiveness of the teacher in directing young students to the profession pedagogical skills, psychological preparation, and communication skills have been developed. The importance of communicative qualities of students in the social environment and in the audience is analyzed.*

Key words: *educational system, lesson, training, career orientation of young people, communicativeness, pedagogical skills, social environment of students*

Rivojlanayotgan va zamonaviy jamiyat ta'lim-tarbiya tizimida, xususan, umumta'lim maktab o'qituvchilari va pedagog kadrlari o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida darsda berishikerak bo'lgan bilimlarni qiziqarli qilib natijaga erishishga xizmat qila oladigan metodik usullardan foydalangan holda etkazib berishi lozim.






Bunday pedagoglartarbiyalagan bolalar o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda jamiyatga ko'plabyangiliklarni olib kiradigan shaxslarga aylanishi mumkin. Pedagog esa shunday kadr yaratib bera olganidan faxrlanadi. Demak, ko'rinib turibdiki, yoshlarni kasbga yetaklovchi ehtiyojlardan biri uning qiziqishlari hisoblanadi. Bu esa insonni biror bir narsaga etilib kelgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Pedagogik faoliyatning ehtiyojga bog'liq jihatlarini Sharqning buyuk allomasi Jaloliddin Rumiy "Ichindagi ichindadir" asarida shunday tahlil qiladi.

"Dars bermoqchi bo'lgan mudarris toliblarning bilimsiz bo'lishini xohlaydi. Chunki bilimsizlik bo'lmasa, o'qitish-o'rgatish ham bo'lmaydi. Bir narsa istamoq, ayni paytda uning zarurlarini ham istamoqdir. O'quvchilarning bilimsizligini xohlagan o'qituvchi ularga hech narsa o'rgatmaydi. Xuddi shunday, tabib ham o'z hunarini ishga solish uchun hammaning kasal bo'lishini istaydi. Chunki uning hakimligi xalqning kasal bo'lishi bilan vujud topa oladi (ya'ni uning hakimligi xalqning xastaligi bilan tirikdir). Lekin xalqning bemor bo'lishiga ham rozi bo'lmaydi. Agar bunga rozi bo'lsaydi, kasallarni davolamasdi. Pul topish uchun nonvoy ham xalqning och bo'lishini istadi. Shu bilan birga, xalqning ochligiga uning ko'ngli rozi emas. Yo'qsa, non sotmas edi". Bundan shuni anglash mumkinki, insonlar kasbi orqali o'ziga kimningdir muhtoj bo'lishini emas, zarurat sabab unga ehtiyoj sezgan kishilarga yordam berish karakligini to'g'ri anglashi lozimdir. Pedagogik faoliyatda ham kasblarni o'zlashtirish o'ziga xos murakkablikka ega ekanligi, bu kasb orqali kasb egasi o'ziga ehtiyojmand kishilarga yordam berishga intilishi sharafli ish ekanligi nazarda tutiladi. Kasb-hunarga yo'naltirishda pedagoglarning o'rni o'zgachadir. Pedagoglar o'quvchilarini kuzatish, ular bilan suhbatlashish orqali, qiziqishlaridan manfaatlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashlariga yo'naltirib turadilar.

Kasbga yo'naltirish - bu yoshlarni kasbga ega bo'lishlaridagi psixologik - pedagogik va fiziologik imkoniyatlari bilan bog'liq bir butun jarayon bo'lib, bu jarayon yoshlarning ehtiyojlari, xohishlari, havaslari, qiziqishlari, layoqati, qobiliyatlari va jamiyatning mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Kasbga yo'naltirish - bu pedagoglarning ta'lim va tarbiya berish jarayonida o'quvchilardagi xohish, istak va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ulardagi psixologik xususiyatlarni (qobiliyat, temperament, xarakter, qiziqish) hisobga olgan holdagi maslahatlar berish jarayonidir. Kasbga yo'naltirishda asosan maktab psixologlari ish olib borsalarda, bu jarayonda ko'proq o'qituvchilarning o'rni va roli kattadir. O'qituvchi o'quvchi bilan doimo bilim berish davomida muloqotda bo'ladi va undagi qobiliyat, havas, qiziqishlar haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda o'qituvchining kasb tanlashda o'quvchiga ta'siri ham, yo'nalish berishga imkoniyati ham yuqori bo'ladi.

O'qituvchining bu maslahatlarini kasbiy maslahatlar qatoriga kiritish mumkin bo'ladi. O'qituvchining kasbiy maslahatlari asosan psixologik xususiyatlardan kelib chiqadi. Bunda o'quvchining psixologik jarayonlari, holatlari, xususiyatlari, individual





tomonlari hisobga olinadi. O'qituvchining bu sohada ham bilimlarga ega bo'lishi kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil qilish uchun muhimdir.


Kasbga yo'naltirishda o'qituvchining roli katta bo'lib, o'qituvchi o'quvchi bilan bevosita ishlash orqali undagi ko'plab xususiyatlarni o'rganib boradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotda ularga o'ziga xos maslahatlar bera oladi. Bunda o'quvchining layoqati, uquvi, zehni, iqtidori, qobiliyati, iste'dodi va boshqa imkoniyatlarini o'rganib borib o'z maslahatlarini berib boradi. Agarda o'quvchilarning qiziqishlari va intilishlari bo'lsa-yu, ulardagi fiziologik va psixologik xususiyatlar shu kasbga loyiq bo'lmasa, u holda kasbga yo'naltiruvchi shaxs sifatida o'qituvchi kasb tanlovchini ehtiyotlik bilan diqqatini boshqa kasblarga qaratish orqali ularni o'zlarining layoqatlariga mos kasblarga yo'naltirishi lozim bo'ladi.

Yunon faylasufi Platon, agar etikdo'z yomon usta bo'lsa, davlat bundan unchalik ko'p zarar ko'rmaydi - fuqarolar bir muncha yomonroq kiyinib yuradilar, xolos, ammo bolalarni tarbiyalovchi kishi o'z vazifalarini yomon bajarsa, mamlakatda nodon va yomon odamlarning butun bir avlodi vujudga keladi, deb yozgan edi[2, 208.]. Shu bois ham ta'lim samarali tashkil qilinishi uchun o'quvchilarni o'qitishda pedagog uch omilga asoslanadi. Bu nimani o'qitishga, kimni o'qitishga qanday o'qitishga bog'liqdir. Bunda aynan kasbga yo'naltirishga qaratilgan ta'limning psixologik tasniflari kelib chiqadi. Bu erda nimani o'qitish deganda - o'qishning xarakteri o'zlashtirilayotgan materialni mazmuniga va qanday tizimda etkazib berilayotganligi bilan bog'liqdir. Qanday o'qitishga bog'liqligi - o'qituvchining pedagogik mahoratiga, tajribasiga, metodikasiga, shaxsiy xususiyatlariga, har xil vaziyatlarda qo'llay oladigan o'qitish uslubiyatiga bog'liq bo'ladi. Kimni o'qitish deganda - o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga, uning o'ziga xos psixik xususiyatlariga, aqliy rivojlanishiga, emotsional irodaviy sifatlariga, qiziqish - havaslariga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda bola tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan omillar uni o'ylashga, o'z manfaatlari yo'lida mehnat qilishga majburlaydi. Yetilib kelayotgan yoshlardagi o'zgarish ularda ijtimoiy jarayonlarga va bu jarayonlardagi o'z o'rnini bilishga undaydi. Ulg'aygani sari shaxslik sifatleri shakllanib borayotgan yosh avlod kelajagi haqida bosh qotiradi, hayol suradi, kelajagini rejalashtiradi. Bular esa unda ko'plab ehtiyojlarni paydo qiladi. Ehtiyojlarni qondirish jarayonida esa inson muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtiradi va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. T.:O'ZBEKISTON. 2017. B.27





2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi

3. Jaloliddin Rumiy. "Ichindagi ichindadir". Ulug'bek Hamdam tarjimasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. 182 betlar.

4. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi.–Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. 208 bet.

